ISSN 2181-3388
ujcr.uz

2022. Том 2. SP

UZBEK JOURNAL OF CASE REPORTS

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЙ И ПРАКТИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ



СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
I Международной научно-практической конференции
по традиционной (народной) медицине

«АБУ АЛИ ИБН СИНО (АВИЦЕННА)
И ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»

Google Scholar | НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ БИБЛИОТЕКА eLIBRARY.RU | CYBERLENINKA | READera

Министерство здравоохранения Республики Узбекистан
Самаркандский государственный медицинский университет
Общественный фонд «Ибн Сино»

UZBEK JOURNAL OF CASE REPORTS
2022, Том 2.
(Специальный выпуск)

https://doi.org/10.55620/ujcr.2.sp2.2022

СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ
I Международной научно-практической конференции по традиционной (народной) медицине «АБУ АЛИ ИБН СИНО (АВИЦЕННА) И ВЕЛИКИЙ ШЁЛКОВЫЙ ПУТЬ»

Самарканд 2022

BRONXOPULMONAR KASALLIKLARDA DORIVOR O'SIMLIK VOSITALARINI QO'LLASHNING SAMARADORLIGI

Axmedov I.A., Amrillayev U.Sh.
Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Samarqand, O'zbekiston.

Dolzarbligi: ko'plab bemorlarni davolashda an'anaviy dorilarni qo'llash nojo'ya ta'sirlarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun baъzi amaliyot shifokorlari fikriga ko'ra, o'simliklardan tayyorlangan dori-darmonlari bunday nojo'ya ta'sirlarga ega emas va uzoq vaqt davomida ishlatilishi mumkin degan fikrni bildirishadi.

Tadqiqot maqsadi: bronxopulmonar kasalliklarda fitoterapiyadan foydalanishni o'rganish.

Tadqiqot materiallari va usullari: ushbu mavzu bo'yicha ilmiy maqolalarni o'rganish va dorivor o'simlik vositalaridan foydalanish bo'yicha Samarqand shahar 8-oilaviy poliklinikasi hududi aholisi o'rtasida so'rov o'tkazish.

Natijalar: turli o'simliklarga asoslangan dorilarning ta'siri aniqlandi. Shunday qilib, quruq yo'tal bo'lgan bemorlarda termopsis o'ti damlamasi, ipekak ildizi, zefir, qizilmiya, anjir mevalarining dorivorlik vosita sifatida qo'llanilganligi o'rganildi. Ajralishi qiyin bo'lgan quyuq balg'amlarni yumshatish va ajralishini osonlashtirishda zubturum bargi yoki shu kabi o'smliklar damlamasidan foydalanish tahlil qilindi. O'pka va nafas yo'llari yallig'lanish kasalliklarida evkalipt barglari ekstrakti, qichitqi o't damlamasi, arpabodiyon damlamasini yallig'lanishga qarshi hamda antiseptik ta'siridan foydalanish ko'lami tahlili o'tkazildi.

Samarqand shahar 8-oilaviy poliklinikasi hududi aholisi o'rtasida o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra, tadqiqotga olinganlarning 63% bronxopulmonar kasalliklar yuzaga kelganda davolanish uchun dorivor o'simliklaridan foydalangan. ularning 86% da kasalliklardan tuzalib ketishda dorivor o'simliklarning ta'sirini sezishgan, 8% da dorivor o'simliklarni taъsiri sezilmagan va 4 % da dorivor o'simliklarga nisbatan allergik holatlar va qabul qila olmaslik kuzatilgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: bronxopulmonar kasalliklarni kompleks davolashda, adabiyotlar tahlili bo'yicha ham, o'tkazilgan so'rovnoma natijalari ham dorivor o'simlik vositalaridan faydalanish dolzarb va samaradorligini ko'rsatdi.

TARAXACUM OFFICINALE O'SIMLIGINI SIFAT NATIJALARI TAHLILI

Axmedova Z.Q. [1], Qirg'izov Sh.M.[2]
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti, Farg'ona, O'zbekiston[1]
Andijon Davlat Universiteti, Andijon, O'zbekiston[2]

Taraxacum officinale o'simligi poyasi, ildizi va gullari tarkibidagi fitokomponentlarni sifat tahlili amalga oshirlidi. Ushbu tahlil jarayonida alkaloidlar, taninlar, saponinlar, flavonoidlar va terpenoidlar, glikozidlar, fenollar turli xil erituvchilarda turli xil natijalarni ko'rsatdi.O'simliklarning shifobaxsh qiymati inson organizmiga aniq fiziologik ta'sir ko'rsatadigan ba'zi kimyoviy moddalardadir.

Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari alkaloidlar, flavonoidlar, taninlar, fenol birikmalari, glikozidlar, terpenoidlar va saponinlar mavjudligiga oid sifat reaktsiyalari amalga oshirildi(2.1.-jadval). Alkaloidlar uchun sifat reaktsiyalar Mayer, Dragendorff, Hager va Vagner tajribalari amalga oshirildi. Mayer, Dragendorff va Vagner tahlillalari biror-bir erituvchidagi ekstarktda ijobiy natija bermadi.Faqat dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari Hager tahlil ijobiy reaktsiya berdi. Bu natijalar o'simlik poyasi tarkibida alkaloidlar mavjud emasligini ko'rsatadi. Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari flavonoidlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Barcha ekstraktlarda flavonoidlar mavjudligi aniqlandi.

Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari taninlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Geksan ekstraktidan boshqa ekstarktlarda taninlar mavjudligi aniqlandi. Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari fenol birikmalari mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Geksan va dixlormetan ekstraktlaridan boshqa ekstarktlarda fenol birikmalari mavjudligi aniqlandi. Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari glikozidlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Etilatsetat va suv ekstraktlarida glikozidlar mavjudligi aniqlandi.

Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari terpenoidlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Dixlormetan, etilatsetat va suv ekstraktlarida terpenoidlar mavjudligi aniqlandi. Barcha ekstraktlarda saponinlar mavjudligi aniqlanmadi. Taraxacum officinale o'simligi poyasining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari kumarinlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Etilatsetat va suv ekstraktlarida kumarinlar mavjudligi aniqlanmadi.

Taraxacum officinale o'simligi ildizining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari alkaloidlar, flavonoidlar, taninlar, fenol birikmalari, glikozidlar, terpenoidlar, kumarinlar va saponinlar mavjudligiga oid sifat reaktsiyalari amalga oshirildi(2.2.-jadval). Alkaloidlar uchun sifat reaktsiyalar Mayer, Dragendorff, Hager va Vagner tajribalari amalga oshirildi. Mayer, Dragendorff va Vagner tahlillalari biror-bir erituvchidagi ekstarktda ijobiy natija bermadi. Faqat dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari Hager tahlil ijobiy reaktsiya berdi. Bu natijalar o'simlik ildizi tarkibida alkaloidlar mavjud emasligini ko'rsatadi. Taraxacum officinale o'simligi ildizining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari flavonoidlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Faqat etilatsetat va suvdagi ekstraktlarda flavonoidlar mavjudligi aniqlandi.

Taraxacum officinale o'simligi gulining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari glikozidlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Dixlormetan, etilatsetat va suv ekstraktlarida glikozidlar mavjudligi aniqlandi. Taraxacum officinale o'simligi gulining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari terpenoidlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Barcha ekstraktlarda terpenoidlar mavjudligi aniqlandi. Taraxacum officinale o'simligi gulining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari saponinlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Barcha ekstraktlarida saponinlar mavjudligi aniqlandi. Taraxacum officinale o'simligi gulining geksan, dixlormetan, etilatsetat va suvdagi ekstarktlari kumarinlar mavjudligini aniqlash uchun sifat reaktsiyalari amalga oshrildi. Barcha ekstraktlarda kumarinlar mavjudligi aniqlanmadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1.Абдуллаев А.А., Мадумаров Т.А., Дариев А.С., Сатторов Б.Х., Рўзматов Э.Ю., Сирожидинов Б.А. Биологиядан қисқача изоҳли луғат.//Методик қўлланма.- Тошкент: Наврўз, 2016.- 212 б.

2.https://en.wikipedia.org/w/index.php?title=Taraxacum_officinale&oldid=1062267612.

3.Morley, T. Spring flora of Minnesota. University of Minnesota Press, Minneapolis. 1969.:255.

4.Van Der Kooi, C. J.; Pen, I.; Staal, M.; Stavenga, D. G.; Elzenga, J. T. M. «Competition for pollinators and intra-communal spectral dissimilarity of flowers» Plant Biology. 2015. 18 (1): 56–62.

5. Барабанов Е.И. Ботаника: учебник для студ. высш. учеб. заведений. — М.:Издательский центр «Академия», 2006. — С. 348. — 448 с. — ISBN 5-7695-2656-4.5.

6. Stewart-Wade,S.M.; S.Newmann;L.L.Collins; G.J.Boland.»The biology of Canadian weeds. 117. Taraxacum officinale G.H. Weber ex Wiggers» Canadian Journal of Plant Science. 2002. 82 (4): 825–853. doi:10.4141/P01-01

YUQORI NAFAS YO'LLARIDA PATOGEN BAKTERIYALARNING MIKROBIOLOGIK O'RNI.

Baltabaeva M.A., Murodova I.A., Ergashov O.I.

Toshkent vaksina va zardoblar ilmiy tekshirish instituti, Toshkent, O'zbekiston

Dolzarbligi. Yuqori nafas yo'llari infektsiyalari yuqor i nafas yo'llarining kataral yallig'lanishi bilan namoyon bo'ladigan va isitma, burun oqishi, hansirash bilan kechadigan o'tkir, ko'p hollarda nafas yo'llarining o'z-o'zini cheklovchi yo'tal, tomoq og'rig'i, turli darajadagi umumiy holatning buzilishi bilan kechadigan kasallikdir. Anatomik nuqtai nazardan, vokal kordlaridan yuqorida joylashgan barcha bo'limlar YuNY ga tegishli: burun, paranazal sinuslar, nazofarenks, ofarenks, laringofarenks. Klinik amaliyotda infeksiya odatda ikki yoki undan ortiq qo'shni hududlarga ta'sir qiladi. Yuqori nafas yo'llarining o'tkir yallig'lanishi, birinchi navbatda, virusli kelib chiqishi hisoblanadi, bu birinchi bosqichda bakterial infeksiya uchun «yo'l ochadi». Virus yuqtirilganda shilliq qavatning patogen bakteriyalar bilan uzoq vaqt aloqasi ikkilamchi bakterial infeksiyani keltirib chiqaradi. . Kasallik alomatlari odatda besh kunda paydo bo'ladi, ammo bu davr 2 kundan 14 kungacha davom etishi mumkin. Kasallikning asosiy alomatlari isitma, tomoq og'ri, yo'tal va nafas qisishidir. Bemorlarda bakteriologik qo'g'atuvchilarini xamda etiologik rolini aniqlash, ularni bakteriologik usullarda topish, tashxis qo'yish,zamonoviy antibiotiklarga segirliklarini aniqlash orqali davolash, hozirgi kundagi eng muhim ahamiyat kasb etuvchi dolzarb muammolardan biri xisoblanadi. Yuqori nafas yo'llarida hozirgi kunda 300 ortiq mikroorganizimlar topilgan bulardan 30 yaqinini laboratoriya sharoitida ajratib olish mumkin. Yuqori nafas yo'llariada ko'pincha patogen bakteriyalar Staphylococcus aures, Streptococcus pneumoniae, Streptococcus pyogenes, Pseudomonas aeruginosa, H.influenrae va shartli - patogen bakteriyalar (Escherichia coli, S.faecalis, Proteus mirabilis, Citrobacter, Klebsiella pneumoniae, Serratia, kamroq xollarda S.epidermidis, Staphylococcus saprophyticus, nogemolitik streptokokklar, Mycoplasma, Chlamydia va viruslar), va zamburug'lar keltirib chiqaradi.

YuNY a'zolarining o'tkir infeksiyalarining asosiy qo'zg'atuvchilari 3 mikroorganizmlardir: Staphylococcus aureus, Streptococcus pneumoniae, Haemophilus influenzae,Moraxella catarrhalis,Streptococcus pyogenes,ayniqsa,Staphylococcus aureus katta ahamiyatga ega.

Ma'lumki, YuNYning shilliq qavati turli xil mikroorganizmlar (patogenlar) birlashmasining manbasi, shu jumladan S.ureus, St. pneumoniae, H. influenzae, bu ma'lum sharoitlarda yuqumli kasalliklarning patogenlariga aylanadi. Yuqori nafas yo'llarining yuqumli yallig'lanishini keltirib chiqarish uchun bakteriyalar birinchi navbatda shilliq qavatni kolonizatsiya qilishlari kerak. Ushbu joyni mustamlaka qilish dinamik va qiyin jarayondir.Mikroorganizm ildiz otishi, yetakchi mavqega ega bo'lishi, mikroblar bilan, uy egasi bilan o'zaro aloqasini o'rnatishi, shuningdek atrof-muhit omillariga moslashishi kerak. Muvozanat holatida ushbu ekotizim inson tanasi uchun katta ijobiy rol o'ynaydi.

Ishning maqsadi. Yuqori nafas organlarida patogen bakteriyalarning mikrobiologik ahamiyatini aniqlash.

Tekshirish materiallari va usullari. Tekshiruv ishlarini bajarishda bevosita bakteriologik va statistik usullardan foydalanildi.

Bakteriologik tekshiruvlar TTA ning mikrobiologiya, virusologiya va immunologiya kafedrasi qoshidagi "Mikrobiologiya ilmiy tadqiqot" laboratoriyasida olib borildi. Odamlarni tibbiy tadqiqotlarga jalb etish bilan bog'liq barcha etik tamoyillar Jahon Tibbiyot Assotsiatsiyasining Xelsinki Deklaratsiyasi (Xelsinki, 1964, oxirgi to'ldirish Seul, 2008) asosida amalga oshirildi va "III-IV bakteriyalar va viruslar bilan ishlash, ularni hisobga olish, saqlash, tashish va boshqa tashkilotlarga yetkazib berish bo'yicha yo'riqnoma. №012-3/0195" asosida bakteriologik tekshiruvlar o'tkazildi.Olingan barcha natijalar va qilingan xulosalar dalillarga asoslangan tibbiyot tamoyillari asosida o'tkazildi. Bemorlarda etiologik bakteriyalarning roli aniqlash uchun yuqori nafas yo'li xisoblangan tomoq va burun bo'shlig'idan surtma olindi va bakteriologik tekshiruvdan o'tkazildi. O'tkazilgan bakteriologik tekshiruvda 75 nafar bemorlar tanlab olindi va ularning tomoq yo'lidan 52 ta burun bo'shlig'idan 23 ta bakteriologik tekshiruv uchun namuna olindi.

Natijalar. Yuqori nafas yo'llari kasallangan bemorlarning yoshi va jinsi bo'yicha taqsimlanishi o'rganilganda, jinsi bo'yicha erkaklar 41 nafar, ayollar 34 nafarni tashkil etadi. Bemorlar o'rtacha 48 yoshni hamda 0-39 yoshgacha 25 nafar 35,18 %, 40-49 yoshgacha 36 nafar 18,34 %, 60-80 yoshgacha 14 nafar 35,18 % tashkil etdi. 75 nafar bemorlarnig 32 nafarida monoinfeksiya va 43 nafarida poliinfeksiyalar aniqlandi. Eng ko'p foizni S.aureus (49%) va Streptococcus spp (22%) tashkil qildi.Boshqa patogen mikroorganizmlardan Streptococcus.pyogenes 19% Klebsiella pneumonia 3%, St.epidermedis 2%, Candida sp 2 %, Pseudomonos aerogenosa 2%,, Enterobacter sp 1% aniqlandi.

Diagramma. Bemorlarning yuqori nafas yo'llarida aniqlangan mikroorganizmlar

Xulosa. Tekshiruv natijalariga asosan yuqori nafas organlarida etiologik omil sifatida Staphylococcus.aureus bakteriyasi ko'p kuzatilishi aniqlandi va asosan o'rta yoshdagi bo'lgan bemorlarda patalogik jarayonlarnini keltirib chiqarmoqda.Infeksiyani oldini olish uchun hamda samarali antibiotiklar qo'llash uchun bemorlardan bakteriologik tahlillarga asoslanish kerakligi haqida tavsiya beramiz.